



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Xaydarova Dilnoza Mamatqulovna

Samarqand Davlat Universiteti O'zbekiston-Finlandiya
Pedagogika Instituti O'zbek Tili Va Adabiyoti Yo'nalishi Magistranti

SATROSTI LUG'ATLARI TA'LIM MATERIALI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada satrosti lug'atlarining amaliy ahamiyati, ularning ta'lif samaradorligini oshirishdagi tutgan o'rni, o'quvchining dunyoqarashi, og'zaki va yozma nutqini o'stirishga hizmat qilishi, maktab darsliklarida (5-7-sinf "Adabiyot" darsligi misolida) satrosti lug'atlarining berilishi masalasi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: lug'at, satrosti lug'atlari, imlo savodxonligi, so'z boyligi, satrosti lug'atlarining amaliy ahamiyati.

Lug'atlar adabiyot ta'limali alohida ahamiyatga ega. Lug'atlar yordamida tushinishi qiyin so'zlar izohlanadi. O'zbek milliy inseklopediyasida: "Lug'at – 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi, leksika; 2) so'zlar (yoki morfemalar, so'z birikmalari, iboralar va b.) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsliflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasi haqida ma'lumotlar jamlangan kitob"¹ deya ta'rif berilgan. O'zbek tilining izohli lug'atida esa " Lug'at – (a – til, sheva; ibora) 1. Biror tildagi so'zlarni ma'lum tartibda jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob. 2. So'z; tildagi barcha so'zlar majmui; so'z boyligi",² - degan ta'riflar berilgan.

O'zbek tilshunosligida lug'atlar, lug'atshunoslik masalalari zamonaviy ta'lif sifati va samaradorligini oshirishda, bugungi ta'limga zamonaviy yondashuvda satrosti lug'atlarining o'ziga xos o'rni mavjud. Satrosti lug'atlari bolaga bilim olish uchun xizmat qiladi, estetik ta'sirdorlik xususiyatiga ega va bolada lug'at bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Shu bilan bir qatorda

¹ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12-жилд. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006.

² Ўзбек тилининг изохли лугати . – Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006.

satrosti lug‘atlari imlo savodxonligini oshirishda, so‘z boyligini kengaytirishda muhim manba va o‘quvchining asosiy maslahatchisi hisoblanmog‘i lozim.

Satrosti lug‘atlari materialni o‘zlashtirishda muhim manba bo‘lganligi bois uning izohi ham yetarlicha berilmog‘i shart va o‘quvchida boshqa bir manbani izlashga o‘rin qoldirmasligi lozim. Aksariyat adabiyot darsliklaridagi satrosti lug‘atlari e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning ko‘p qismi mumtoz matnlarga berilgan lug‘atlardir. Masalan, 7-sinf adabiyot darsligida jami 531 ta satrosti lug‘ati berilgan bo‘lib, shularning 50% dan ortig‘i, ya’ni 295 tasi Alisher Navoiy hayoti va ijodi va “Sabai sayyor” asaridan berilgan parchaga oid lug‘atlarni tashkil etadi (masalan: dostonorolig“–dostonchilik, doston aytuvchilik, Adan– Arabistonagi kichik mamlakat nomi, javr– jabr, azob, fan– hunar, safshikan– saflarni buzuvchi qahramon, savohil– sohillar, qирg‘oqlar, sohili bahr–dengiz sohili, manozil– manzillar, maskan, tanumand– norg‘il, gavdasi yirik, shujo– botir, daler–qo‘rmas, jazira– orol, axz– olmoq, egallamoq kabi)³. Shuningdek, Hamza ijodi bo‘yicha 23 ta (masalan: uyaz- ruscha tuman ma’nosidagi “uyezd” so‘zining buzib aytilishi, mohi tobon– yorug‘ oy, to‘lin oy, oshufta– shaydo, oshiq, lahvutarab– befoya hangomatalablik, nafs-u havo– nafs istagi, kibr, maqtanchoqlik, domi tama’ – tama tuzog‘i, xam– egilgan, bukilgan, og‘lo– yig‘la, tug‘gonlaring– tug‘ganlaring, bolalarin, oyonalara– boylarga), Shuhrat ijodidan 1 ta (masalan: nag‘al– taqa), Mirmuhsin va uning “Me’mor” romanidan olingan parchada 11 ta (masalan: bahri muhit– okean, silsila– zanjir, tarh– reja, chizma, girdibod– pastdan yuqoriga tikka esadigan quyun, o‘rama, qiblanamo– kompas, girvat– quyun, o‘rama, jozvar, jazval– chizg‘ich, lineyka, handasaviy– geometrik kabilar), O‘limas Umarbekov “Qiyomat qarz” asaridan olingan parchada 1 ta (masalan: cho‘giri– qovun turi), Chingiz Aytmatov “Oq kema” asaridan olingan parchada 2 ta (masalan: zoovettexnikum– chorvador mutaxassis tayyorlaydigan o‘quv yurti, okular– durbin linzasini tutib turadigan qism), “Ravshan” dostonidan olingan parchada 73 ta (masalan: tumanda– tubanda, quyida, kechkisin– kechqurun, kechki ovqat, iskamoq– hidlamoq, qoralab– mo‘ljallab, chandalab, yashirinib, bol Avaz – Avazning «asalday shirin» ma’nosini bildiruvchi laqabi, murt– mo‘ylov, tilin olmoq– gapiga kirmoq, o‘dag‘a – «yetakchi», «sardor» ma’nosidagi «o‘t og‘a» so‘zining buzilgani, sovuq shamol yemagan – «shashti qaytmagan», «og‘ir gap eshitmagan» ma’ nosida, o‘mgan– ko‘krak, to‘sh, jazoyil– nayza, dim– aslo, hech kabilar), Jahon Otin Uvaysiy ijomida 15 ta (masalan: solik– ma’naviy tozarish, ruhiy poklanish yo‘lidagi shaxs, istadim– bu yerda: «izladim» ma’ nosida, Uz diling taalluqdin – dilingni dunyo aloqasidan uz, ya’ni dun yodan yuz o‘gir, mosivo Uvaysiyman– dunyodan uzilgan Uvaysiyman, kavokib– yulduzlar, arz to samo– yerdan osmongacha, xarobotin– bu yerda: so‘fiylar maskani, iqtido– ergashish. Bu yerda Uvaysiyning so‘fiylik, tasavvuf maslagiga ergashgani anglashiladi, borgoh– faqir so‘fiylar, ishq ahlining manzilgohi, beriyozat– mashaqqatsiz, qyinoqsiz, azobsiz, sahl– yengil, oson kabilar), Zavqiy ijomida 32 ta (nasimi jonfizo– jon bag‘ishlovchi shabboda, pajmurda– so‘lg‘in, g‘amgin, arsai olam– olam maydoni, ya’ni butun dunyo, Anvar– nurli, zevar– ziynat, bezak, adlgustar– adolatpesha, aduv–dushman, yov, raqib, ehtisob– nazorat, tekshirish, shiori shar’– shariat shiori, ya’ni qonun ustuvorligi, ziynatafzo– ziynat, bezak beruvchi, ruhparvar– ruh, jon bag‘ishlovchi, jannatoso– jannah kabi, qarn– davr, asr, ahbob– do‘srlar, qayd– zanjir Samak– Ayyor Samak xalq qissasining bosh qahramoni, mahak– kumush va oltinlarga surtib, ularning toza yoki qalbakilagini ajratadigan tosh, shug‘l– mashg‘ulot kabilar), Maxtumquli ijomida 1 ta (masalan: Eranlar– Ollohnning do‘srlari bo‘lgan avliyo zotlar), A.Qodiriy “Mehrobdan chayon” asaridan olingan parchada 65 ta (masalan: mo‘ndi– dastasi siniq ko‘vacha, rezrov– mayda-chuyda, muqobala– qarshi), Cho‘lpon ijomida 5 ta (Egamanlik– mustaqillik, hamoyillar – qo‘ltiq tagidan o‘tkazib taqiladigan yomon ko‘zdan asrovchi toshli tumor, bezaktosh, sor– qarchig‘aylar turiga mansub yirtqich qush, qizg‘anmasdan– ayamasdan), A.Qahhor ijomida 6 ta (yelpishtovoq– don yelpishga mo‘ljallangan katta yassi tovoq, dodxo– ariza qabul qiluvchi amaldor, mingboshi, halqa– tarovih namozi qatnashchilarining ommaviy qur’onxonlik marosimi, ponsot– askarboshi, qo‘rboshi, bozvant– ayollar sochiga

³ Yo‘ldoshev Q, Qosimov B, Qodirov V, Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiyo‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri. – T.: «Sharq», 2017. – 368 b.

taqiladigan bezak, sochpopuk.), Ernest Seton Tompson ijodida 1 ta (jallob– dallol, olibsonar) satrosti lug‘ati berilganiga guvoh bo‘lamiz.

Bu lug`atlar o‘quvchida izohtalab tushunchalarni o‘zlashtirishda, so‘zlarning ma‘nolarini tushuntirishda katta ahamiyat kasb etadi. Adabiyot fanidan ayrim maktab darsliklarida berilgan asar matnlarida o‘quvchilar uchun ma‘nosи izohlanishi kerak bo‘lgan tarixiy va arxaik so‘zlar, hamda leksik dubletlarning ma‘nolari satrosti lug‘atlarda izohlanmagan. Masalan, S. Ahmedov, B.Qosimov va boshqalar muallifligidagi amaldagi 5-sinf adabiyot darsligida Oybek qalamiga mansub bo‘lgan “Fanorchi ota” hikoyasida “**o‘ksiz**” “**churuk**”, “**titrak**”, (Tor, qiyshiq ko‘chaning **o‘ksiz** oqshomini Tursunqul akaning **churuk** darvozasi tepasiga o‘tqizilgan bir fonarning **titrak** nurlarigina yoritar edi.), “**piston**”(Keyinchalik bu ham bizni zeriktira boshladi, chunki **piston** qadalgan yoki har turli ipaklar bilan bezalgan do‘ppini kiyib olib, fanor chiroyli bir tus olar, bizni xafa qilgandek bo‘lar edi.) kabi so‘zlarning ma‘nosи satrosti lug‘atida o‘z aksini topmagan⁴. Bu esa matnni to‘liq tushunishga to‘sinqilik qiladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida o‘ksiz so‘ziga “ himoyasiz, baxtsiz, bechora, o‘ksik ” deya, churuk so‘ziga “eski, juldur, chirib ketgan” deya, piston so‘ziga “ kiyim-kechak, parda va sh.k.ga ziynat uchun qadaladigan yiltiroq plastinkacha” deya ta’rif berilgan.Bu holat maktab darsliklarida satrosti lug‘atlarini takomillashtirish va undan foydalanish zaruratini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12-жилд. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006.
2. Ўзбек тилининг изохли лугати . – Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006.
3. Yo‘ldoshev Q, Qosimov B, Qodirov V, Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot: Umumiyo‘t o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri. – T.: «Sharq», 2017. – 368 b.
4. Ahmedov S, Qosimov B va boshqalar. Adabiyot: Umumiyo‘t o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: «Sharq», 2020. – 272 b.

⁴ Ahmedov S, Qosimov B va boshqalar. Adabiyot: Umumiyo‘t o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – T.: «Sharq», 2020. – 272 b.